**“Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan fuqarolarni ishga olgan ish beruvchilarga daromad solig‘ini qaytarish bo‘yicha**

# QO‘LLANMA

“20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturi doirasida “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan fuqarolarni ish bilan ta’minlagan tadbirkorlik subyektlariga ushbu xodimlar uchun to‘langan JShODS bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga to‘g‘ri kelganda qaytarib beriladi:

- Savdo-sanoat palatasi bilan tuzilgan “Hamkorlik shartnomasi” mavjudligi;
- ikki yildan ortiq faoliyat yuritayotganligi;
- davlat ulushi mavjud emasligi.

PF-93-son 12.06.2023

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan fuqarolarni ish bilan ta’minlagan ish beruvchilar to‘langan JShODSni qaytarib olishi uchun:

1. my3.soliq.uz portalida shaxsiy kabinetdan **“Yuridik shaxslar tomonidan xodimlar uchun to‘langan daromad solig‘i summasini Davlat budjetidan to‘liq qaytarib berish bo‘yicha elektron arizalarni ko‘rib chiqish”** sahifasiga o‘tiladi;

@soliqnews



2. Ushbu bo‘limdan **“Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan fuqarolarni ishga olgan ish beruvchilar uchun”** bo‘limi tanlanadi;




3. Ochilgan ariza shaklida arizachi to‘g‘risida ma’lumotlar *(tashkilot nomi, STIR, manzil)* avtomatik shakllanadi;

@soliqnews



4. Tegishli qatorlarga hisobot davri *(yil, oy)* kiritilgandan so‘ng xodimlar haqidagi ma’lumotlar (*F.I.Sh, JShShIR va qaytariladigan JShODS summasi)* avtomatik shakllanadi.




@soliqnews

5. Arizada **bank rekvizitlari** *(bank nomi, MFO, hisobraqam)* va egallab turgan yer maydoni ham avtomatik aks etadi.

5.1 Arizaga Savdo-sanoat palatasi bilan tuzilgan “Hamkorlik shartnomasi”ni yuklab, **“Ariza shakllantirish”** tugmasi orqali jarayon yakunlanadi.



6. **“Yuborilgan arizalar”** bo‘limidan ariza *(raqami, sanasi, bajarish muddati, jarayoni, soliq organi va bajaruvchi)* haqidagi ma’lumotlarni bilib olish mumkin.




Talablarga javob bermagan ish beruvchi uchun ariza yuborish tizim tomonidan avtomatik cheklanadi.

Yuborilgan arizalar bo‘yicha JShODS summasi qonunchilikda belgilangan muddatlarda qaytariladi.

**Soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish departamenti**

@soliqnews